



BOLALAR NUTQIDA PARALINGVISTIK ELEMENTLARNING QO‘LLANILISHI TAHLILI

Salayboyeva Sevinch Valijon qizi

O‘zDJTU Ingliz tili 3-fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: sevasalayboyeva@gmail.com

G.I.Narmurodova

Ilmiy rahbar:

O‘zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15396286>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma‘qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 13-May 2025 yil

KEYWORDS

paralingvistika, nonverbal muloqot, jestlar, imo-isholar, intonatsiya, tana tili (body language).

ABSTRACT

Mazkur maqolada bolalar nutqidagi paralingvistik elementlarning qo‘llanilishi xususida ma‘lumot berilgan hamda ularning o‘rganilish darajasi va ahamiyati tahlil qilingan. Murojaatda bolalar tasavvurlari, nutqining o‘shishi, nutq jarayonida bolalarning non-verbal aloqa vositasidan foydalanishlari to‘g‘risida fikr va xulosalar dalilangan.

Insonlar jonli so‘zlashuv nutqida ma‘lum axborotni qisqa va lo‘nda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va ta‘sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo‘lgan noverbal vositalardan foydalanadi.

Aloqa-aralashuv jarayoni verbal/lisoniy, noverbal/nolisoniy yo‘l asosida ro‘yobga chiqadi. Verbal muloqot inson his-tuyg‘ulari va kechinmalarini tinglovchiga tushunarli tarzda yetkazib beruvchi eng qulay vosita bo‘lsa-da, noverbal muloqot verbal muloqot bilan birgalikda, bir-birini to‘ldirgan xolatda ishlatiladi. Boisi, fikr-mulohazalarni imo-ishora va tana harakatlari yordamida ifoda etish muloqot qilish uchun eng murakkab jarayon hisoblanadi. Tilshunoslikda bu yo‘nalish paralingvistika nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u axborot uzatilayotganda yordamchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun “ekstralingvistik va ichki lingvistik faktorlarning munosabati haqidagi masala doimo va asosli ravishda tilshunoslikning eng asosiy masalalaridan hisoblanib kelgan”. [1.3. b]. Paralingvistik muloqot verbal muloqot singari tuzilishga ega emas ya‘ni unda ot, kesim, birinchi, ikkinchi darajali bo‘laklar kabi tushunchalar bo‘lmasa-da, ushbu vositalar tashiydigan ma‘no hammaga birdek tushunarli hisoblanadi.

Misol uchun o‘zbek millatida **bosh iring‘itish** orqali kishi biror fikrni rad etayotganini anglaymiz. So‘z bilan ifoda eta olmagan fikrlarimizni yuz-ifodalarimiz va harakatlarimiz orqali yetkaza olishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu sohaga qiziqish yillar davomida ortib kelmoqda. So‘zlovchi nutqi tinglovchiga to‘liq yetkazilishi uchun “fikrni to‘ldirib keluvchi unga yondosh bo‘lgan imo-ishora tilini mufassil ravishda o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molikdir”. [2.8.b] Sababi, millionlab yillar oldin paydo bo‘lgan ibtidoiy

odamlar bir-birlari bilan turli-xil imo-ishoralar va belgilar orqali muloqotda bo'lishgan.

Xususan, I.S. Vigotskiy nutq san'atini egallashning boshlang'ich bosqichida imo-ishora va tilning murakkab aralashib ketishini ibtidoiy odamlarda imo-ishoralarni tasvirlovchi hamda ifodalovchi juda ko'p so'zlarning mavjudligi bilan izohlaydi.

Paralingvistik vositalar dastlab 1644-yili Angliyada D.Bulverning "Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishoralar harakatlarini ifodalovchi qo'lning tabiiy tili va xronologiyasi" nomli asarida tadqiq qilingan. [3.7.b]

Bolalar nutqida paralingvistik elementlarning kuzatilishi bu so'zlardan tashqari, nutqni boyituvchi va to'ldiruvchi, emotsiyalarni yoki niyatlarni ifodalovchi tinglovchilar va muhokama qiluvchilar uchun muhim bo'lgan non-verbal aloqa jihatlarida namoyon bo'ladi. Avvalo, bunday nutq faoliyati bolada ota - onaning ta'siri orqali rivojlana boshlaydi. So'z bilan ifodalanmagan elementlar huddi kattalar nutqida muhim rol o'ynagandek bolalarning nutqida ham muhim ifoda kasb etadi, chunonchi ular hissiyotlarni, niyatlarni va o'z fikrlarini ifodalashda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu elementlar bolalarning rivojlanish jarayonida muloqot qilish, ijtimoiy aloqa o'rnatish va emotsiyalarini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuz ifodalari: Yuz ifodasi bolalarning his- tuyg'ularini, o'zgarishlarini va reaksiyalarini ifodalovchi muhim non-verbal elementdir. Amaliyotda unga yuzlansak, qovoqni to'plab nigohlarining yerga qarashi - xavotir, xafagarchili yoki dardni ifodalaydi.

"Rang-qutim o'chib ketdi, nega desangiz, ishning bu yog'i sal ishkalkroq edi-da. Qo'rqanimdan damimni ichimga yutib turaverdim. [Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni minib", 7 sahifa].

"Men hali ham **serrayganimcha qovog'imni solib** ustunga suyanib turar edim.

- Hey, - dedi Hoji bobo, - devorga suyab qo'ygan kurakdek nega serrayib turibsan, amakilaringga salom berib, bu yoqqa chiq, bolam, ha, shunday bo'ladi." [G'afur G'ulom. "Shum bola", 102 sahifa]

Tana harakatlari: Bolalar tabiatan juda harakatchan va odatda body language sezilarli darajada rivojlanganini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, salomlashish jarayoniga o'zbeklarda qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish yoki biron bir narsaga ishora qilayotganda barmoqlar bilan ko'rsatish. Yuqoriga ko'tarilgan bosh o'sha jarayonga bo'lgan qiziquv va baxtiyorlikni bildiradi. Qo'lning o'ralganligi - bola yopiqligi va ochilishni istamayotganligini ifodalaydi.

Bolalar arazlashib qolishsa ba'zida "ajab qildim" degan talqinda tillarini chiqarib, sheriklariga ishora qilishadi.

"— Gapiring, izza qiling! Bolalar maktabda o'qib qayta bevosh bo'lib ketyapti. Siz uyda yo'q vaqtlarda Hamdamingizning dastidan menga kun yo'q. Ilgarilar urib yengar edim, endi uray desam, qochib tomga chiqib ketadi, tomda turib menga **tilini ko'rsatadi**. Hamroev qo'yin daftariga nimalarnidir yozdi." [Abdulla Qahhor. Kim aybdor? hikoyasi]

Kuzatuvlarga ko'ra, yangi avlod bolalari yoqtirgan narsalariga bosh barmoqlarini ko'tarib "like", biroq negative fikrda bolishsa "dislike" bilan baholashga o'rganganlar. Bu holatlarda hozirgi kun texnologiyalarning ta'siri kattaligini anglashimiz

mumkin, You tube, Tiktok, Instagram, tarmoqdagi videolar szga ma'qul bo'lganda bosh barmoq ya'ni "like" tugmasini tanlaysz aksincha bo'lsa "dislike"ni.



Bundan tashqari, “воздушный поцелуй” mehribon yoki do'stona o'pish shakllaridan biri, odamning e'tiborini yoki yengil noz-karashmani anglatadi, odatda masofadan turib, lablar bilan o'pich yo'llash. Bolalar bu elemetni minnatdorchilik ramzi, ya'ni rahmat shaklida qo'llashadi.

Ko'z bilan aloqa: bolalar ko'p hollarda hissiy kechinmalarini ko'zlari orqali ifodalaydi. Qo'rquv yoki hayratlanganlarida ko'zlarining katta-katta bo'lib ochilishi, ko'zlarning yumshoq tutilishi ehtiyotkorlikni, hafalikni, yig'lashni yoki hohishlarini bildiradi.

— Tag'in yolg'on gapirasanmi? Bundan keyin yolg'on gapiradigan bo'lsang, bilib qo'y, men oyingga o'xshab og'rimaydigan qilib urmayman-a!.. Shu yolg'on gapiyandan keyin ruschadan «yaxshi» olganingga ham ishonmayman. Qani, xo'sh, masalan, choynakning qopqog'ini ruscha nima deydi? Samovarning jo'mragini nima deydi? Hamdam ikkovini ham bilmadi va **yig'laganicha** nariga uyga kirib ketdi. Hamroev qo'yin daftarini olib nimalarnidir o'chirdi, yana nimalarnidir yozdi.” [Abdulla Qahhor “Kim aybdor?” hikoya]

“Qutbiddinov bola bechorani xo'p urishdi. Zargarov Qutbiddinovni o'larday kalaka qilib toza alamini oldi, buning ham og'irligi Suyarga tushdi. Suyar yig'lab yubordi.

— Undoq demagin, o'g'lim, — dedi Zargarov birpas jimlikdan keyin, — dadang bir narsa degandan keyin darrov «xo'p, bilmabman» deyishga o'rgan. Yaxshi emas. [Abdulla Qahhor. “O'jar” hikoyasi]

Ovoz temberining balandligi: kulish, baqirish, yeg'lash bular ham non-verbal elementlar hisoblanib bolaning psixologik xolatini ifodalaydi.

“Suyar o'zining **quvonchini tantana baland ovozda** bilan e'lon qildi:

— Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada!

— E, ana endi! Ko'p bema'ni ish qilibsiz-da, o'g'lim! Shaxmat o'ynamagin, demabmidim? Qara, burningdan suv oqyapti, miyang suyulibdi!” [Abdulla Qahhor. “O'jar” hikoyasi]

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki bugungi kun bolalari o'zlarining fikr va mulohazalarini ifodalalshda turli xil paralingvistik elementlardan foydalanishiga guvoh bo'ldik. Paralingvistik elementlarning diaxron va sinxron aspektida o'ziga xos tarzda ifodalanishi badiiy adabiyotdan olingan misollar asnosida dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Saidxonov “Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi”
2. M.Qurbonov “Noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar”

3. Накашидзе Н.В. Вербальная интерпретация П.С. в тексте //Сборник научных трудов МГПИИЯ им.М.Тореза. 1980.вып.
4. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES International scientific online conference.
5. Xudoyberdi To'xtaboyev. "Sariq devni minib".7b.
6. G'afur G'ulom. "Shum bola". 102b.
7. Abdulla Qahhor. " O'jar" hikoyasi.
8. Abdulla Qahhor. "Kim aybdor" hikoyasi.

